



## MILLIY XUSUSIYATLARNING ISMLARDA AKS ETISHI

**Shohsanam Tojiyeva**

*magistrant*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada oʻzbek va turk tillaridagi kishi ismlari bilan bogʻliq hodisalar, antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari, yangi tendensiyalar va ularning sabablari tahlilga tortilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *tendensiya, globalizatsiya, trend, ommaviy madaniyat, ism.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются явления, связанные с именами людей в узбекском и турецком языках, лингвокультурные особенности антропонимов, новые тенденции и их причины.*

**Ключевые слова:** *тенденция, глобализация, тренд, популярная культура, имя.*

**Annotation:** *In this article, the phenomena associated with the names of people in Uzbek and Turkish, the linguistic features of anthroponyms, new trends and their causes are drawn into the analysis.*

**Key words:** *trend, globalization, trend, popular culture, name.*

### KIRISH

Turk va oʻzbek tillari bir ildizdan – turkiy tillar oilasidan kelib chiqqan boʻlib, bu tillardagi antroponimlarning shakllanishi va rivojlanishida koʻplab oʻxshashliklar va farqlar kuzatiladi. Lingvomadaniy xususiyat esa etnomadaniy xususiyatga ega boʻlgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universalialarni ifodalaydi. Lingvomadaniy xususiyat tafakkurda mavjud boʻladi va oʻzida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmunni ifoda etadi. Lingvomadaniy xususiyat barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini oʻtaydi. Lingvomadaniy xususiyat milliy xarakterning shakllanishiga taʼsir koʻrsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi. Antroponim onomastika oʻrganadigan oʻn toʻqqiz turdagi atoqli otlardan biridir. Yillar davomida onomastikaga bagʻishlangan barcha tadqiqotlarda antroponimlar haqida ham soʻz borgan.

Oxirgi sakkiz yilda oʻzbek va turk xalqlari orasida iqtisodiy munosabatlar bilan bir qatorda madaniy aloqalar ham rivojlandi. Oʻzbek tilini boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy oʻrganish umumiy madaniyatimizni jonlantirishga xizmat qiladi. Tarixga nazar solsak turkiy xalqlarning hayotida farzandga ism qoʻyish muhim masalalardan biri deb hisoblangan. Hammamizga maʼlumki, ism inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, oʻzbek xalqida ismlarning oʻrni va mohiyati katta. Bola tugʻilgach, unga yaxshi niyatlar ila ism tanlanadi, bu jarayonga nominatorlar (yaʼni, ism qoʻyuvchilar) turlicha yondashishadi. “Chaqaloqqa qoʻyilgan ism uning taqdiriga



ta'sir qiladi” degan tasavvurlar davrlar o'tishi bilan ismni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog'langan, unga doimo va bir umr esh, hamdam bo'lib yuradigan vositaga aylantira borgan. Masalan, S.Kenjayeve o'zbek ismlarini o'zbek antpononimikasini o'rganib, ularni bag'ishlov ismlar, tasviriy ismlar va ism-istaklarga ajratib tasniflaydi. Tilimizdagi nomlar o'zi anglatayotgan tushunchaning xarakteri, narsalarning atalishidagi xususiyati va belgilariga ko'ra farqlanadi. Shuning uchun qadimdan bolaga ism qo'yish jarayoni alohida ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Shuning natijasida kundalik nutqimizda eng ko'p kishi ismlariga murojaat qilamiz. Ular inson hayotining ajralmas bir bo'lagini tashkil qilib, psixologiyamizga samarali ta'sir ko'rsatadi. Jahon psixolog olimlarining tadqiqotlarida aytilishicha kishi umri davomida eng ko'p o'zining ismini eshtar ekan. Tildagi atoqli otlarning katta bir guruhini kishilarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi.

Muhokama va natijalar. Turkiy qadriyatlar tomonidan qaraganda, turk va o'zbek tillarida qadimiy turkiy nomlar saqlanib qolgan. Masalan, Alp, Bektosh, Qutlug' kabi ismlar turkiy xalqlarning jasorat va ezgulikni qadrlashini ko'rsatadi.

Qarindoshlik tizimi bilan bog'liq xususiyatlar esa qarindoshlik terminlaridan kelib chiqqan antroponimlar ikki tilda ham mavjud. Masalan, o'zbek tilida: Dadaxon, Otaqul (oilaviy aloqalarni aks ettiradi). Turk tilida: Babacan, Ebrar (oiladagi iliq munosabatlarni ifodalaydi).

Ijtimoiy maqom va kasb bilan bog'liq ismlar. Turk va o'zbek madaniyatlarida ijtimoiy maqom yoki kasb bilan bog'liq antroponimlar uchraydi. O'zbek tilida, Bekzod (“bek” unvonidan), Temur (“temirchi” ma'nosidan). Turk tilida, Soylu (“nufuzli”), Demir (“temir”). Tabiat bilan bog'liq ismlar.

Tabiat hodisalari va elementlari bilan bog'liq antroponimlar ham ikkala tilda uchraydi. O'zbek tilida, Oltinoy, Shamshod, Gulnoza. Turk tilida, Güneş, Yıldız, Çiçek. Bu ismlar xalqning tabiatga hurmatini va estetik qarashlarini ifodalaydi.

Aytilishicha, turklar yomon ko'z, hasadgo'y nigoh va yovuz ruhlardan kelib chiqadigan zarardan xavotirlanib, go'zal va jozibali ayollarga yoqimsiz ma'noga ega ismlar berishni odat qilishgan. “Bepusht” yoki “xunuk” degan ma'noni anglatuvchi so'zlar ayol ismlari sifatida berilgan. Bundan tashqari, dastlab qizlarga nisbatan ishlatilgan bu so'zlar keyinchalik odamning asl ismi bo'lib, o'z nomi sifatida qolgan bo'lishi mumkin.

Turklar Azroilda qo'rquv uyg'otish va uning e'tiborini boshqa tomonga qaratish, asl ismini yashirishga harakat qilish uchun farzandlariga ikkita ism berishgan. Yoki, yoqimsiz deb hisoblanishi mumkin bo'lgan ismlarni, masalan, Çor yoki Çör (kasallik, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan yomon rhlar), Deli (jinni), İtalmaz (it olmas, kimsa qaramaydigan), Karamik (qora), Kızkan (es hushi joyida emas), Kirli (kir), Kürre (kurra), Sarımsak (sarımsoq), Tezek (tezak), Tırırık (kuchsiz, qo'rqoq), Diken (tikon) va boshqalarni berish Azroilning o'sha odamga yaqinlashishiga yo'l qo'ymaslik



uchun qilinganligi aytiladi. Shunga o‘xshash vaziyatlar boshqa xalqlar orasida ham mavjud .

Jinsiy farqlarni aks ettirish. Turk va o‘zbek tillaridagi antroponimlar jinsiy farqlarni aniq ko‘rsatadi. Ayollar ismlarida noziklik va go‘zallik aks ettiriladi. O‘zbek tilida, Gulnora, Dilbar, Malika. Turk tilida, Zeynep, Fatma, Ayşe. Erkaklar ismlarida kuch va qahramonlik ifodalanadi. Alpomish, Temur, Jasur, Osman, Alp, Mehmet.

Familiyalarning shakllanishi va madaniy o‘ziga xosliklar. O‘zbek tilida familiyalar -ov/-ova, -yev/-yeva qo‘shimchalari bilan rus davri ta‘sirida shakllangan. Masalan, Karimov, Nazarova. Turk tilida familiyalar, Yılmaz, Doğan, Çelik. O‘zbek familiyalarining shakllanishida sovet davri ta‘siri kuchli bo‘lsa, turk familiyalari milliy qadriyatlar asosida rivojlangan. Turkiya Respublikasida familiya institutining qonuniy asosda joriy etilishi XX asr boshlarida amalga oshirilgan tub siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayon milliy davlat qurilishi konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. 1934-yil 21-iyunda qabul qilingan Familiya qonuni (Soyadı Kanunu) shaxsni nomlash tizimini zamonaviy huquqiy mezonlar asosida qayta tashkil etishni ko‘zlagan bo‘lib, u an‘anaviy nomlash shakllaridan voz kechish orqali yangi ijtimoiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qilgan. Mazkur qonunning mafkuraviy asoslari Mustafa Kemal Atatürk tomonidan ilgari surilgan respublika g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir. 1934-yil 24-noyabrda unga “Atatürk” familiyasining berilishi familiya qonunining ramziy mazmunini yanada kuchaytirib, yangi turk milliy identitetining til orqali ifodalanishini ta‘minladi. XXI asrga kelib, “Turkiya Respublikasi huquq tizimida ism va familiyani o‘zgartirish jarayonini soddalashtirishga qaratilgan 7039-sonli Qonun 2017-yil 19-oktyabrda Turkiya Buyuk Millat Majlisi tomonidan qabul qilingan. Mazkur qonun hujjati 2017-yil 3-noyabrdagi 30229-sonli Rasmiy gazetada e‘lon qilinib, huquqiy kuchga ega bo‘lgan. Ushbu islohot sud tizimidagi yuklamani kamaytirish maqsadida, imlo xatolari va ma‘naviy mos kelmaydigan ismlarni sud tartibisiz, ma‘muriy kengashlar qarori bilan o‘zgartirish vakolatini vaqtinchalik huquqiy norma sifatida joriy etdi”.

7039-sonli qonun bilan ism va familiyani o‘zgartirish tartibiga oid nizom qabul qilingan sana 14.12.2017. “Familiya to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasiga zid bo‘lgan familiyalar, shuningdek, imlo xatolari, tahririy nuqsonlar yoki tinish belgilarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi natijasida ma‘naviy o‘zgarishga uchragan ism va familiyalar sud qarorisiz o‘zgartirilishi mumkin. Buning uchun fuqaro ikki yil muddat ichida o‘zi istiqomat qilayotgan hududdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (nufus) idorasiga yozma ravishda murojaat qilishi lozim. Viloyat yoki tuman ma‘muriy kengashlari qaroriga binoan, bunday o‘zgartirishga bir martalik asosda ruxsat beriladi. Ushbu tartib doirasida tuman va viloyat ma‘muriy kengashlari tomonidan quyidagi holatlar ko‘rib chiqiladi:



Reyestrlararo tafovutlar: Shaxsning asoslovchi hujjatlarida va yopiq reyestrlarida ko'rsatilgan familiyasining ochiq rasmiy ro'yxat daftari yozuvlariga boshqacha shaklda ko'chirilganligi holatlari.

Yozuvdagi texnik xatoliklar: Shaxsning yagona qaydnomasi mavjud bo'lib, asoslovchi hujjatda familiya to'g'ri ko'rsatilganiga qaramay, oila daftoriga noto'g'ri yozilganligi.

Harfiy nuqsonlar: Asoslovchi hujjatlarda va oila reyestrida shaxs ismida harf tushib qolganligi holatlari. Masalan: Yasmin/Yasemin, Memet/Mehmet kabi.

Punktuatsiya xatolari: Ism va familiyada tinish belgilarining mavjud emasligi. Masalan: Ali/Ali, Nihal/Nihal, Isa/Isa va kabi.

Raqamli ifodalar: Familiyada raqamlardan foydalanilgan holatlar. Masalan: 1.O'g'lu kabi.

Ismlarning yozilish shakli: Alohida yozilgan ismlarni birlashtirish. Masalan: Ayşe Gül/Ayşegül yoki qo'shib yozilgan ismlarni ajratish, Mehmetcan/Mehmet Can haqidagi talablar.

Protsessual qoidalar:

Tegishli ism va familiyalar ma'muriy kengashlar tomonidan faqat bir marotaba o'zgartirilishi mumkin.

Viloyat va tuman ma'muriy kengashlarining bu boradagi qarorlari qat'iy (yakuniy) hisoblanadi.

Arizalar shaxsning doimiy yashash joyi bo'yicha aholini ro'yxatga olish idoralariga topshiriladi.

Murojaatlarni qabul qilishning so'nggi muddati 03.11.2019 ish kuni yakunigacha etib belgilangan. Ushbu sanadan keyin topshirilgan arizalar ko'rib chiqilmaydi.

Ota–onaning farzand oldidagi dastlabki burchi o'z farzandiga yaxshi bir ism qo'yishidir. Zero, bu ism bilan kelajakda bolasi uyalib qolmasin, bu esa unga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xalqimiz azaldan bolaga ism qo'yishda milliy urf-odatlar, ishonch va e'tiqodlariga qarab ism qo'ygan. Badiiy asarlarda ham yozuvchi o'z qahramoniga ism berishda shu qahramonning xarakter xususiyatidan kelib chiqqan holda ism tanlaydi. Tanlangan ism bevosita qahramon haqida ma'lumot beradi. Ism tanlash ham bir mahoratdir. Har bir yozuvchining o'z qahramonlariga ism tanlashida o'ziga xos uslubi bor. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanidagi obrazlarga ism qo'yishiga nazar solaylik.

Otabek ismi o'zida “ota” va “bek”| so'zlarini mujassamlashtirgan. Bu qahramonning o'ziga xos liderlik fazilatlarini va oilaviy mas'uliyatini aks ettiradi. Shu sababli Otabek asarda ham jasoratli, dono va o'z sevgisi uchun kurashadigan inson sifatida tasvirlangan.

Kumush so'zi sof va qimmatbaho metal ma'nosini anglatadi. Bu ism Kumushning pokizaligi, nafisligi va sevgi uchun qadrlilik ekanini ko'rsatadi.

Chingiz Aytmatov – “Jamila”.



Jamila ismi arabcha bo‘lib, “go‘zal” degan ma‘noni anglatadi. Bu qahramonning nafaqat tashqi go‘zalligini, balki ichki olamini ham ifodalaydi. Jamila o‘z erkinligi va sevgisi uchun kurashgan, jasoratli ayol sifatida tasvirlangan.

Mirkarim Osim – “Muhabbat”.

Muhabbat ismi asarning bosh mavzusi – sevgi va insoniy his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Bu qahramonning hayotidagi asosiy voqealar sevgi bilan bog‘liq.

Turk va o‘zbek tillaridagi antroponimlar lingvomadaniy jihatdan o‘ziga xos va boy merosni aks ettiradi. Islom dini, turkiy qadriyatlar va tarixiy jarayonlar bu tillardagi antroponimlarning rivojlanishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Ushbu ismlar xalqning madaniyatini, urf-odatlarini va ijtimoiy munosabatlarini chuqur anglashga yordam beradi. Antroponimlarni lingvomadaniy tahlil qilish turli tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlashda muhim vosita bo‘lib, millatlararo aloqa va tarixiy rivojlanishni tushunishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Yozuvchilar ismlar orqali qahramonlarning xarakterini, asarning g‘oyaviy mazmunini va ramziy ma‘nolarini ochib berishga intiladi. Bu usul o‘quvchiga asar mazmunini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Turk va o‘zbek xalqlarida ota-bobo nomlarini avloddan-avlodga berish an‘analari hozirgacha davom etib kelayotgan meros hisoblanadi. Inson hayotida ism muhim ma‘naviy qiymatga ega bo‘lib, u nafaqat shaxsni jamiyatda tanituvchi vosita, balki madaniy, tarixiy, diniy va oilaviy merosning bir ko‘rinishidir. Har bir xalqda ism tanlash va uni farzandga berish jarayoni ma‘lum an‘analarga tayanadi. Ota-bobo nomlarini avloddan-avlodga berish esa bu an‘analar ichida alohida o‘rin egallaydi.

Turkiy xalqlarda ism tanlash madaniyati qadimdan rivojlangan bo‘lib, bu jarayonda tarixiy, diniy va milliy omillar muhim rol o‘ynaydi. Turkiyada, ayniqsa, otanonalar bolaga ism qo‘yishda avlodga nisbatan hurmat belgisi sifatida bobo yoki buvining ismini tanlashadi. Bu orqali bobo-buvilarning xotirasi saqlanadi, ularning fazilatlarini farzandda davom etishiga ishoniladi.

Masalan, turk oilalarida birinchi o‘g‘il bolaga odatda bobosining ismi, ikkinchi farzandga esa ko‘p hollarda boshqa qarindoshning ismi beriladi. Bu an‘ana oilaviy merosni saqlash, urug‘-aymoq tarixini unutmashlik, ajdodlarga hurmat ko‘rsatish maqsadida amalga oshiriladi.

Zamonaviy turk jamiyatida bu an‘ana biroz o‘zgarayotgan bo‘lsa-da, lekin an‘anaviy qarashlarga ega oilalarda bu urf hanuzgacha davom etmoqda. Shu bilan birga, mashhur tarixiy shaxslar yoki diniy yetakchilarning nomlarini bolalarga berish holatlari ham keng tarqalgan.

O‘zbeklarda ham ism tanlash jarayoni muqaddas sanalib, farzandga ism qo‘yish jarayoni ko‘p hollarda diniy yoki urf-odatlarga asoslanadi. O‘zbek oilalarida ham ota-bobo nomlarini avloddan-avlodga berish keng tarqalgan. Bu, bir tomondan, ajdodlarning xotirasini e‘zozlash bo‘lsa, boshqa tomondan, bola hayotida ularga o‘xshash fazilatlar bo‘lishini istash bilan bog‘liq.



Ko'pincha birinchi o'gil bolaga bobosining ismi beriladi. Qishloq joylarda bu an'ana yanada kuchliroq saqlanib qolgan bo'lib, hatto nomlar avlodlar davomida qayta-qayta takrorlanadi. Shuningdek, diniy sabablarga ko'ra, Muhammad, Ahmad, Ali kabi ismlar keng qo'llanadi, ular ko'pincha ota-bobolarning nomlari bilan birgalikda ishlatiladi.

Bundan tashqari, o'zbeklarda nom tanlashda farzandning tug'ilgan kuni, oyning fazilati, tushdagi ishora, ota-onaning orzu-istaklari, yoki mahalliy e'tiqodlar ham hisobga olinadi.

Turk va o'zbek xalqlarida nom berish an'anasi ko'plab umumiylklarga ega. Ikkala xalqqa xos jihat bu – ajdodlarning ismlarini davom ettirish orqali ularga bo'lgan hurmatni ifoda etish, avlodlar orasidagi uzviylikni ta'minlash, va oila tarixini saqlashdir. Farqlarga kelsak, turk xalqlarida nom tanlashda ba'zan fonetik go'zallik va zamonaviylik omili kuchliroq ta'sir etsa, o'zbeklarda esa diniy va oilaviy sabablar ustun turadi. Turk jamiyatida so'nggi yillarda nom tanlashda erkinlik oshib borayotgan bo'lsa-da, o'zbeklar orasida bu borada an'anaviy qarashlar hali ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, ko'plab o'zbek oilalarida yangi tug'ilgan chaqaloqqa bolaning ota-onasi emas balki, oilaning boshi bo'lmish qaynona-qaynotaning orzu-havasiga qarab nom beriladi. Ammo ko'p hollarda tanlangan ismdan yosh onalar norozi bo'lishi mumkin. Chunki, yoshlarning dunyoqarashi va o'y-hayollari bilan yoshi kattalarning dunyoqarashi bir-biriga mos kelamay qoladi. Lekin shunday bo'lsa-da, yoshi ulug'larning fikri inobatga olingan holda chaqaloqqa nom beriladi. Chunki, o'zbeklarda birinchi navbatta o'zidan kattalarga hurmat extirom turadi.

Ota-bobo nomlarini avloddan-avlodga berish an'anasi turk va o'zbek xalqlarining qadimiy va mustahkam oilaviy qadriyatlarini aks ettiradi. Bu an'ana nafaqat ajdodlarga hurmat, balki ma'naviy va madaniy merosni saqlash vositasidir. Garchi zamonaviy hayot sharoitida bu urf biroz o'zgarmoqda, biroq uning mazmuni va mohiyati hanuzgacha dolzarb ahamiyatga ega. O'zbek ismlari turli tomondan o'rganilib ularni sayqallash, tahrirlash bugungi kunda dolzarb masalalalardan biri bo'lib qoldi. Zero, millatning go'zal amallari, jahon oynasidagi harakatlari ismi bilan monand bo'lishi katta ahamiyatga ega. O'zbeklarning ism tanlashi ko'p jihatdan farzandga bo'lgan munosabatidan kelib chiqadi. Aksariyat hollarda bu o'gil yoki qizga bo'lgan munosabatdan paydo bo'lgan qarashlardir. Ma'lumki, gender munosabat jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, talim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Farzand tug'ilganda oiladagi gender munosabat ism tanlashning ham ahamiyati katta. Bu inson jinsining ijtimoiy-madaniy jihatini ifoda etuvchi tushuncha ekan, uning ismlarda aks etishi muqarrar. Oiladagi turmush tarzini yengillatuvchi jins erkak va quvonch baxsh etuvchi qiz muvozanati ijtimoiy shart-sharoilar tufayli buziladi va oxir oqibat ism tanlashda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oilada qiz farzand tug'ilavergach, agar u ikkitadan oshsa, keyingilariga o'gil tushunchasi bilan bog'liq ismlarni qo'yish boshlanadi. Gender muvozanat nafaqat maishiy



masalalarda balki ijtimoiy mavqe, daraja, g'urur bilan bog'liq, kechinmalarda ham o'z aksini topadi Shuningdek, nafaqat otalar balki onalar ham o'g'il farzand ko'rganda bir pog'ona ko'tarilgandek, o'zlarini boshqalardan ustun bo'lgandek his etishni boshlaydi. Chunki o'gil himoyachi, og'il jangchi, boquvchi, suyanch sifatida idrok etiladi. Johiliyat davrida, ya'ni Islomgacha Arabiston yarim oroli aholisi o'rtasida ayolning hech qanday o'rni ham, qadr-qimmatini ham yo'q edi. Bu holat farzandning tug'ilishidan boshlanardi. Oilada o'g'il bola dunyoga kelsa, sevinishar, tug'ilishidan xursandchiliklar qilishar, qiz tug'lsa esa oilada motamsarolik hukm surib, tezda farzandni yoqotish payiga tushishar edi. Ayolning eri oldidagi qadri erining molichalik emasdi. Johiliyat zamonida arab erkaklari ayol bilan bir xonada o'tirishmas, birga ovqatlanmasdilar. U davrda arablar uch narsada: otda, ayolda, uyda hosiyat yo'q, deb ishonishardi.

### **XULOSA**

Mavzuni o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga erishildi.

Mashhurlar va ommaviy madaniyatning ismlar tizimiga ta'siri zamonaviy ijtimoiy jarayonlarning ajralmas qismiga aylangan. Ota-onalar tomonidan farzandlariga ism tanlashda mashhurlar va ommaviy madaniyat qahramonlari katta rol o'ynayotganini ko'rish mumkin. Biroq, milliy o'ziga xoslik va qadriyatlarni saqlash, ismlarning ma'no-mazmuniga e'tibor berish ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu bois, zamonaviy va an'anaviy ismlar o'rtasida muvozanatni topish jamiyatning ma'naviy barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Baxtiyorov, A. (2020). O'zbek ismlari tarixi va ularning ma'nosi. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
2. Johnson, P. (2019). Celebrity Culture and its Impact on Naming Trends. New York: Social Studies Press.
3. Rahmonov, D. (2023). Globalizatsiya va milliy o'ziga xoslikning o'zaro ta'siri. Toshkent: Ilm nashriyoti.
4. Watson, L. (2021). Pop Culture Phenomena: How Media Shapes Identity and Choices. London: Culture Press.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi (2024). Yangi tug'ilgan chaqaloqlarga qo'yilgan ismlar statistikasi. Toshkent.